

Ismoilov Feruz SHokirovich

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada turizmi rivojlangan davlatlar iqtisodiy rivojlanishida turizmining tijoratga qanchalik tasir ko'rsatganini o'rganib chiqildi. Misol sifatida Birlashgan Arab Amirliklari va Turkiya tijoratining rivojlanishida turizm qanchalik ijobiy tasir ko'rsatganligini o'rganib tahlil qildim. Bu davlatlar bekorga olinmadi chunki ushbu davlatlar turizm sohasida ancha yutuqlarga erishgan va ayni yillarda tijorati rivojlangan davlatlar hisoblanadi. O'rganishlar davomida davlat iqtisodiyotidagi tijoratning ulushi va tijoratda turizm qancha ulushga ekanligi o'rganildi.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda turizm o'z xizmat turlari bilan ko'pgina insonlarga foyda keltirmoqda. Bazi bir davlatlar iqtisodiyotining asosiy ulushi va daromad manbasi sifatida ko'riladigan soha hisoblanadi. Ayni fursatda hixmatlatlar sohasining ko'p tarmoqlari va yo'nalishlari turizm bilan bog'liqdir. Turizmi rivojlangan davlatlarning tijorat sohasi turizm tufayli rivojlanib bormoqda. Shu sababdan ko'pgina davlatlar tashqi va ichki tijoratlarini rivojlantirish maqsadida turizmga ko'proq e'tibor bermoqdalar.

Bu yo'lni bosib o'tgan davlatlar borki aynan ularning tajribasi bizga o'rnak bo'la oladi. Misol sifatida Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrini olishimiz mumkin. Hechkimga sir emaski ushbu shahar aynan turizm uchun qurilgan va turistlarning oqimi ayni damda juda ko'p bu shaharga. Bundan foydalangan Dubay mamuriyati shaharga tashrif buyuruvchining ko'proq qolishini, turistik xizmatlardan foydalanishidan tashqari suvinirlarni ko'proq olishiga sharoitlar yaratgan. Turistlarning barchasi albatta xarid amalga oshirishi kerak degan maqsadda pavilionlar, yarmarkalar, aeroportlarda Dyuti fri lar maskanlari yaratib ular orqali ko'pgina tovarlarning tijoratini yo'lga qo'ydi. Bizga yaxshi malumki Dubayda neftdan boshqa mahsulot ishlab chiqarilmaydi. Lekin Dubay shahrida sayohatchi xoxlagan narsani sotib oladi. Bu esa tijorat juda yuqori darajada rivojlanganidan darak beradi.

Tijorat va turizm sohasida ulkan muvofaqiyat va natijalarga erishgan Turkiya tajribasi ham o'rganishga arziydigan tajriba hisoblanadi. Turkiya hukumati tomonidan mavjud turizm obyektlari asosida ularni kelib ko'ruvchi sayohlar uchun aynan turistik obyekt joylashgan maskan oldida tijorat maskanlarini yaratish orqali nafaqat turistik xizmatlar ko'rsatuvchilarning daromad olishiga va tijorat bilan shug'ullanuvchularning qo'shimcha daromadga ega bo'lishiga imkon yaratildi. Biz yaxshi bilamizki Turkiyada juda ko'k mahsulotlar ishlab chiqariladi. Mana shu tovarlarning istemolchilarini toppish va eksportini tashkil etish maqsadida Turkiya hukumati tomonidan Istanbul shahrida tijoratning yuqori darajada tashkil etilganligi va Istanbul aeroportini aviya tashuvlar

markaziga aylantirilishi, kirib keluvchi turistlar ham , mamlakatdan chiqib ketuvchi turistlar ham Istanbul shahri orqali o`tishi tufayli bu shaharda tijorat turizm tufayli jadal suratlar bilan rivojlanmoqda.

Ko`pgina mamlakatlar uchun turizm asosiy daromad manbalaridan biri va iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Turizm iqtisodiy o`sishga hissa qo`shishdan tashqari, mamlakatning madaniy rivojiga ta`sir ko`rsatadi va xalqaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bugungi kunda O`zbekiston sayyohlar tashrifi uchun ochiqdir. Buning samarasida qiziqarli loyihalar amalga oshirilmoqda, buni Namangan shahridagi «Afsonalar vodiysi» madaniyat va istirohat bog`i va har kuni yuzlab mehmonlar tashrif buyuradigan «Amirsoy» tog`-chang`i kurorti misolida ko`rishimiz mumkin. Bularning barchasi ko`rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshishiga, ish o`rinlarining ko`payishiga, yangi loyihalar yaratilishiga, eng muhimi, O`zbekistonning tarixiy merosiga qiziqishning oshishiga ta`sir ko`rsatmoqda. Hatto mahalliy aholi ham milliy loyihalarni barpo etishda faolroq ishtirok eta boshladi. O`zbekistonda turizm shiddat bilan rivojlanmoqda , tijoratning rivojlanish imkoniyatlari ko`rilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ushbu maqolada yozish jarayonida asosan o`rganish uchun tanlanlangan davlatlarning iqtisodiy tijorat statistika malumotlari va turizm sohasidagi malumotlari hamda sayohatchilar tomonidan qoldirilgan fikrlarga asoslandi.

Ilmiy maqola yozilishi uchun malumotlarni yig`ish uchun kuzatish va o`rganish ishlarari olib borildi.

Demak turistik oqimlar va ular uchun yaratilgan xizmatlar bilan tijoratning qiymatining bog`liqligini aniqlash maqsadida korilliotiv analiz usullaridan foydalanildi. Undan tashqari malumotlarni yig`ishda ochiq bo`lgan statistik malumotlar va ularni boshqa manbalar yordamida taqqoslash yo`llari yordamida shakllantirib xulosalar qilindi.

Muhokama va natijalar.

Qilingan o`rganish analizlar shuni ko`rsatdiki turistik oqimning oshishi natijasida davlat va shaharning tijorat hajmi davlat iqtisodiyotidagi ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda Dubay shahri turli saytlar orqali katta chegirmalar vaqti va kunlarini 3 yoxud 6 oy oldin elon qilib boriladi. Misol sifati 28 yildan beri tashkil etilayotgan “Dubai shopping Festivali” qishki shopping festivali hisoblanadi. Ushbu festival 2022 yilning 15 dekabrda to 2023 yilni 29 yanvariga qadar amalga oshirildi. Bu sanalar bekorga tanlanmagan chunki ushbu davr oralig`ida Dubayga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni juda ko`p hisoblanadi. Ushbu festival tugaganidan so`ng Bahorgi arzonlashtirilgan tovarlar yarmarkalari tashkil etiladi. Bu yarmarkada qishda sotilmay qolgan tovarlar arzon narxda va yangi bahor kolleksiyasi taqdim etildi. “Dubay Summer Surprises” yozgi shopping festivali 29-iyulda boshlanib to sentyabr oyiga qadar davom etdi. Shunga o`xshash festivallarda asosan Dubay brendi mahsulotlari va

ko'pgina import qilingan tovarlar turistlarga marketlar , supermarketlar va savdo povilyonlarida sotiladi . Bu qilingan harakatlar tufayli oxirgi 28 yilda Dubay iqtiso turizmning va tijoratning ulushi o'sib bordi. Hozirda tijoratning Dubay iqtisodidagi ulushi sezilarli 15% ga , turizmning ulushi 18% ga yaqinlashdi.

Turkiya hukumatining qilgan sayi harakatlari tufayli Turkiyaning Istambul shahri Sharqiy Yevropa va G'arbiy Osiyo , O'rta Osiyo minyaqasi davlatlari aholisi va sayyohlari uchun tijorat markaziga aylandi. Ushbu shaharni ko'pchilik nafaqat turist sifatida balkim tijoratchi sifatida ham yoqtirib qoldi.

O'zbekistonimizda ham ayni fursatda shunga o'xshagan sayi harakatlar qilinmoqdaki ularning natijalarini ko'rib bormoqdamiz. Har yili tashkil etib borilayotgan "Ipak va Ziravorlar " festivali , "Xalqaro hunarmandlar " festivallarida nafaqat turistik xizmatlar ko'rsatilmoqda balkim ko'p miqdorda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlar sotilishi tashkil etilmoqda.

Xulosa:

O'rganishlar va fikrlarni umumlashtirgan holda shuni etirof etish kerakki davlat iqtisodiyotining tijorat ulushi oshib borishi va rivojlanishida tuzimning o'rni va roli juda katta hisoblanadi. Turizm orqali davlat eksport hajmi oshadi. Turistlar aynan bir davlatni tijorat salohiyatidan bahramand bo'lishadi. O'zbekiston eksport tijoratining oshishida barchamizning yani ishlab chiqaruvchilar va turizm xodimlarining birgalikdagi harakatlari katta samaralar ,natijalar va daromadlarga olib keladi .

O'zbekiston tijoratining turizm yordamida yanada oshirish uchun bir necha muammolarni yechish kerak. Bu muammolar qatoriga mavsumiy turistlar oqimi va bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun biroz noqulaylik keltirib chiqaradi.

Infrastrukturaning yetarlicha rivojlanmaganligi, transport sohasidagi muammolar ham tijoratning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda . transportning yangicha turlarini tadbiq etish ushbu muammolarning yechimi bo'lishi mumkin.

#### **ADABIYOTLAR:**

- 1 take-profit.org sayt malumotlari.
- 2 Wikipediya.org sayt malumotlari.
- 3 . Uzsatat.uz ningturizm va turistlar to'grisidagi ma'lumotlari